

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11068542>

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA
INTEGRATSIYALASHGAN MASHG'ULOTLAR JARAYONIDA
BOLALARNING KOMMUNIKATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH**

Muxtorova Moxiraxon Ma'rufjon qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Maktabgacha ta'lim nazariyasi va
metodikasi mutaxassisligi, 2-bosqich magistranti

Email: moxiramuxtorova55@gmail.com

***Annotatsiya:** Mazkur maqaloda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilayotgan faoliyatlarning sifatli va mazmunli tashkil etishda integratsiyalashgan mashg'ulotlarning kommunikativ sifatlarini rivojlantirish bo'yicha ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** integratsiya, kompetensiya, kommunikativ, ijtimoiy, shaxsiy kompetensiya, nutq, muloqot, o'yin, markazlar.*

***Аннотация:** В данной статье развитие коммуникативных качеств деятельности интегрировано в качественную и организацию деятельности, осуществляемой в дошкольных образовательных организациях.*

***Ключевые слова:** Интеграция, компетентность, общение, социальная, личный компетенция, речь, общение, игра, центры.*

***Abstract:** In this article, the development of communicative qualities of activities integrated in the qualitative and meaningful organization of activities carried out in preschool educational organizations.*

***Key words:** Integration, competence, communication, social, personal, competence, speech, communication, play.*

Adabiyotlar tahlili:

Shidad bilan rivojlanayotgan mamlakatimizda Maktabgacha ta'lim tariyalanuvchilariga alohida e'tibor bilan qaralmoqda binobarin Integratsiyalashgan mashg'ulotlari tashkil etishda alohida yondashib sifatli mashg'ulotlar tashkil etish uchun qonun va qarorlar ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta'lim Tashkilotlari uchun ILK QADAM davlat o'quv dasturi qayta ishlab chiqilib 2022-yil 4-fevralda tasdiqlandi. "ILK QADAM" davlat o'quv dasturida tarbiyalanuvchilarga yosh xususiyatlarini hisobga olib mashg'ulotlarni markazlarda tashkil etib integratsiyon ta'limga yanada imkoniyatlar ochib berildi.

Integratsiya G.F.Gegel, I.Ya.Lerner o'z asarlarida keltirib o'tkanidek maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda bir nechta tarmoqlarni birlashtirishning dolzarbligini qayd etadi. Bolalar bog'chasida ochiq intgratsiyalashgan mashg'ulotlar tashkil etishda murakkab ko'nikmalarni namoyish qilishni o'z ichiga oladi.

Integratsiyalashgan mashg'ulotlarni tashkil qilishda Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda markazlarda faoliyat olib borilmoqda buning afzalliklari juda ko'p. Bolalar o'zlarining qizishlari bilan faoliyat olib borishadi. "Bolajon" dasturida esa bolalar qiziqishi inobatga olinmay bir-hil faoliyat olib borilgan. Markazlardagi faoliyatni tarbiyachilar to'g'ri tashkil qilsalar ko'plab yutuqlarga erishadilar.

Davlat Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni 3-7 yoshgacha bo'lgan davrda qamrab olinadi. Ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etishda yosh guruhlariga bo'lib oladi. Kichik guruh (3-4 yoshli bolalar), o'rta guruh (4-5 yoshli bolalar), katta guruh (5-6 yoshli bolalar), tayyorlov guruhi (6-7 yosh).

2-3 yoshga kelib bolalar kattalarni gaplarini qaytarishadi. O'zgarar nutqini taqlid qilishadi, musiqa, badiiy so'z tasiriga tez berilishadi, raqsga tushadi, tashqi olamni anglaydilar.

Shuning uchun ham bolalarga shu yosh davrdan boshlab sherlar yod olishi, raqsga tushishishini ongli ravishda his qilish ko'nikmasi hosil bo'ladi. 3-4 yoshda yani kichik guruhda bolalar bilan asosan 3-tagacha markazlarda faoliyat

olib borsak ko‘zlagan maqsadimizga erishamiz. Integratsiyalashgan mashg‘ulotlarni markazlar faoliyatida o‘z ichiga olib bu faoliyatlar oddiy mashg‘ulotlardan tubdan farq qiladi. Bunda tarbiyachi va yordamchi tarbiyachi doimo o‘z ustida ishlashi va mashg‘ulotlar jarayonida etarlicha bilim, malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lishlari lozim. 4-5 yoshli tarbiyalanuvchilar bilan uch-to‘rtta markazda ishlashlari mumkin. Katta va tayyorlov guruhlarida esa 5-ta markazda faoliyat olib borishadi yosh hususiyatlari bilan qiyinchilik tug‘dirmaydi. Tarbiyachilar bolalarga bilim berishda mavzuga hos va mos ko‘rgazmali qurollar tayyorlashlari oddiy mashg‘ulotlar emas, balki, integratsiyalashgan mashg‘ulotlar tashkil etishlari uchun hozir hamma sharoitlar yaratib berilmoqda. Bog‘cha yoshidagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. 3-7 yoshli davrida bolalarning asosiy faoliyati quyidagi ketma-ketlikda kichadi:

- predmetlarni o‘rganishi;
- individual predmetli o‘yinlar, jamoa syujetli-rolli o‘yinlar;
- individual va guruhij ijod;
- musobaqa o‘yinlari;
- muloqat o‘yinlari;
- uy mehnati;

Bog‘cha yoshidagi bolalar nutqini bir muncha to‘la o‘zlashtirganlari va haddan tashkari harakatchanliklari tufayli ularda o‘zlariga yaqin bo‘lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan muloqot qilishga intilishlari va ko‘plab savollar berishlari kuzatiladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi bog‘chadagi o‘rtoqlari va qo‘ni-qo‘shnilarning bolalari bilan ham jamoa bo‘lib o‘ynashga harakat qiladilar.

Hamma narsani bilib olishga bo‘lgan qiziqishlari yuqori bo‘ladi. Tarbiyachilar bolalar bilan do‘stona munosabat o‘rnatib mashg‘ulotlarni tashkil etsa ko‘zlagan maqsadiga erisha oladi.

Bolalarni diqqati nihoyatda beqaror bo‘ladi. Bolaga bir o‘yinchoq berilsa bor e‘tiborini shu o‘yinchoqqa qaratishi mumkin, lekin boshqa bir o‘yinchoq olib bersak, bola diqqatini boshqa o‘yinchoqqa qaratadi. Bunga sabab fiziologiya nuqtai nazaridan ularda hali tormozlanish protsesslarining kuchsizligi bilan bog‘liq. Shuning uchun ham bolalarning diqqati bir narsadan ikkinchisiga osongina chalg‘ib ketadi. Kichik yosh davrda bolalarning diqqati barqororlashib bora boshlaydi. Uzoq vaqt davomida o‘tira olishadi, ba‘zi o‘yinlarni soatlatlab o‘ynay boshlaydi, mashg‘ulotlarda chidam bilan o‘tira olishadi.

Bog‘cha yoshidan boshlab bolalarda ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi. Ixtiyoriy diqqati rivojlantirish uchun turli xil o‘yinlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir:

- aqliy hujum;
- rolli o‘yilar;
- kichik guruhlarda ishlash;

Bunday o‘yinlarda bolalar o‘zlarini erkin tutadilar tortinish, hadiksirash tuyg‘ularini chekinib, o‘ziga ishonchi oshadi.

Integratsiyalashgan mashg‘ulotlarda bolalarni aqliy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Mashg‘ulotlarda fanlar aro integratsiyasini ta‘minlash uchun tarbiyachilar o‘quv rejari va metodikalariga ega bo‘lishlari kerak.

Yangi materiallar bilan jihozlanishlari lozim. Bolalarni qiziqishini o‘rganish, ta‘lim berish uchun tinimsiz o‘z ustida ishlashi lozim.

Rivojlanayotgan maktagacha ta‘lim tashkilotlarida markazlarda ishlashda bolalarga har tomonlama teran fikrlashlari uchun faoliyat olib borishadi.

San‘at markazida bolalarga faqatgina qog‘oz va qalam emas uning yoniga guash, akvarel, plastilin, paxta va turli xil hom ashiyolar bilan mashg‘ulotlar tashkil etib bolalarning iqtidorini ochib beradi.

Sujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazida bolalar kattalarga taqlid qilishi, ertak qahramolarini ijro etishlari, kerak bo‘lsa uydagi kurib ulg‘ayotgan muhitni ham ko‘rsatib berishadi.

Qurish va konstruksiyalash, matematika markazida bolalar mustaqil ijodiy qoiliyatlari rivojlanadi.

Fan va tabiat markazi loy, tosh, suv va qumnig xususiyatlari, ona-tabiyat, qushlar va hayvonot olami haqida ma'lumotlar olishadi.

Til va nutq markazi oila, ertak, milliy qadriyatlarimiz bo'yicha bilimlar beriladi.

Tortinchoq, uyatchan, injiq bolalar uchun sukunat burchagini tayyorlab qo'yiladi. Tariyalanuvchi jamoadagi bolalarga qo'shilmay ajralib olsa sizdirmay kuzatiladi. Bu holatni bartaraf etish uchun avval tarbiyachi o'zi tarbiyalanuvchi bilan individual ish olib boradi, bu yordam bermasa ota-ona va psixologni jalb etiladi.

Integratsiyalshgan mashg'ulotlar tashkil etishda o'quv rejasidan chetga chiqmagan holda markazlarda faoliyat olib boradi. Tariyalanuvchilarni mehatsevarlikka, tashkilotchilikka, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslagan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, atrof-muhitga ongli munosbat tarkib toptirish lozim. Zamoaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib mashg'ulotlar tashkil etilsa maqsadga muvofiq. Maktagacha ta'lim tashkilotlarida o'quv tizimiga yangi metodlardan foydalanib ishchi o'quv dasturlar ishlab chiqib ularni yutuqlarini o'rganib mamlakatimizni amaliyotga tadbqiq etsak maqsadga mufoviq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Maktagacha ta'lim jarayonini o'qitishda innovatsiyon pedagogik texnologiyalar" A.R.Meleboyev, Sh.R.Zarmasov, L.T.To'raqo'lov.
2. "Umumiy pedagogika" B.S.Abdullayeva, A.A.Xoliqova, D.R.Farsaxonova, S.V.Muhammadaliyeva, M.B.Sheranova.
3. "Maktabgacha pedagogika" Sh.Sodiqova.
4. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi I.V.Grosheva, Sh.Sh.Mirziyoyeva, L.G.Yevstafyeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V.Pak, V.A.Nazarova, N.F.Abdunazarova.